MAISHIY XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH KLASSIFIKATSIYASI VA UNING IJTIMOIY-IQTISODIY OQIBATLARI

Navruzbek Azimjonovich Rajabov
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti mustaqil tadqiqotchisi hamda Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi kafedrasi assistenti
https://doi.org/10.5281/zenodo.14223234

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maishiy xizmatlar sohasini rivojlantirish asosida kambag‘allikni qisqartirish klassifikatsiyasi va uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari bayon etilgan.*
Kalit so‘zlar: *xizmat, maishiy xizmat, kambag‘allik, qashshoqlik, klassifikatsiya, institutsional, korxona, tadbirkorlik, raqobat, aholi, ekologiya, ta’lim, resurs.*
Аннотация. *В данной статье описана классификация снижения бедности на основе развития сферы бытовых услуг и ее социально-экономических последствий.*
Ключевые слова: *услуга, бытовое обслуживание, бедность, бедность, классификация, институциональный, предприятие, предпринимательство, конкуренция, население, экология, образование, ресурс.*
Abstract. *This article describes the classification of poverty reduction based on the development of the household services sector and its socio-economic consequences.*
Key words: *service, household service, poverty, poverty, classification, institutional, enterprise, entrepreneurship, competition, population, ecology, education, resource.*

Kirish. Aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish sohasi serqirra faoliyat turi hisoblanib, insonlar kundalik hayoti sharoitlarini yaxshilabgina qolmay, ularning ishdan bo‘sh vaqtlarida hordiq chiqarishi, o‘zini tarbiyalashi va madaniy ehtiyojlarini qondirish kabilar uchun vaqtini tejashga ham yordamlashadi. Aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanishi hayot sifatini oshirish va aholi farovonligini yuksaltirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham, xizmat ko‘rsatishning ushbu turi butun mamlakat, ayniqsa hududiy moliya va ijtimoiy sohaning yeng istiqbolli yo‘nalishidan biridir.

Hozirgi kunda jahon va milliy iqtisodiyot sohalarida ro‘y berayotgan tarkibiy o‘zgarishlar va bu jarayonlarga pandemiyaning salbiy ta’siri hamon saqlanib kelmoqda. Shu sababli, ko‘pchilik odamlar ish profilini o‘zgartirishga va yangi zamonaviy mutaxassisliklarni o‘rganishga muhtoj bo‘lmoqda. Yashash turmushi qiymatini oshirish uchun aksariyat insonlar qo‘shimcha daromad olish maqsadida bir nechta joylarda ishlashga majbur bo‘lmoqda. Ana shunday sharoitda maishiy xizmatlarning ahamiyati unchalik katta emas, lekin ahamiyatlidir, zero ushbu xizmatlar mutaxassislarni qayta tayyorlash hamda tashkilotlarni qayta tashkil etish zaruratini keltirib chiqarmaydi.

Mamlakat hududida maishiy xizmat ko‘rsatish ulushining o‘sishi zamonaviy ish o‘rinlarining paydo bo‘lishiga olib keladi. Bundan tashqari, tashkilotlar nafaqaxo‘rlar, nogironligi

bo‘lgan shaxslar, to‘liq ish kunida ishlashga qodir bo‘lmaganlar – ish topishi murakkab bo‘lgan aholi toifalari bilan qo‘shimcha to‘ldirilishi ham mumkin.

Mamlakatimizda maishiy xizmatlar ko‘rsatish holati talab darajasida bo‘lmasa ham, ammo ushbu soha yangi korxonalar hamda qo‘shimcha ish o‘rinlarining vujudga kelishiga zamin yaratadi. Shu bilan bir qatorda, maishiy xizmat ko‘rsatish sohasida ish olib boruvchi tashkilotlar faoliyatining taraqqiy yetishi o‘sha hududda joylashgan tadbirkorlar harakatini yanada faollashtiradi hamda mahalliy aholini qo‘shimcha ravishdagi daromadini ta’minlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Maishiy xizmat, ishsizlik, bandlik, kambag‘allik tushunchalari borasida klassik xorijiy yetakchi iqtisodchi olimlar ibratli ilmiy izlanishlar olib borganlar. Bunday ilmiy izlanishlar iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turgan mamlakatlarda maishiy xizmatlar sohasini rivojlantirish muammolarini o‘rganishda nazariy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Iqtisodiyot fanining bu sohasida tushunchalari rivojiga MDH davlatlari olimlari kabilar ham o‘z hissalarini qo‘shganlar. Mazkur muammolar tadqiqoti xususida mamlakatimiz olimlaridan M.Q.Pardayev[1], M.M.Muxammedov,[2], Yu.P.Urunbayeva[3], Q.J.Mirzayev[4] kabi iqtisodchi olimlar ham ibratomuz ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirganlar.

Iqtisodchi olimlar tomonidan “maishiy xizmat” tushunchasiga juda ko‘p ta’riflar berilgan. Bu ta’riflar borasidigi bahs-munozaralar bugungi kunda ham maishiy xizmat ko‘rsatishning barcha jabhalariga tegishli bo‘lib, ushbu tushunchani yanada mukammalroq asoslash kerakligini ko‘rsatadi.

M.B.Rossinskiy va M.T.Roze maishiy xizmatlarga “uy mehnatini ma’lum darajada almashtiradigan yoki qisqartirishga imkon beradigan xizmatlar”ni kiritishadi. Ushbu olimlar asosiy e’tiborni insonlar kundalik hayotidagi xizmatlarni qisman soddalashtirish va ularni boshqa turdagisiga almashtirishga qaratgan holda mavjud mahsulotning iste’mol davrini yanada uzaytirish, jumladan iste’mol qilish uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan boshqa xizmatlar inobatga olinmagan[5].

V.V.Yuximenko fikricha, maishiy xizmatlar aholining maishiy turmushi bilan chambarchas bog‘liq ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan turli xil ishlab chiqarish hamda noishlab chiqarish ko‘rinishidagi harakati yoki mehnatining iste’mol qiymatini o‘zida aks ettiradi[6]. Bu yerda maishiy xizmat mehnatni tashkil etish shakli va iste’mol nuqtayi nazaridan olib qaralgan holda ularni amalga oshirishda individual xarakteri ochib berilmagan.

A.I.Garaninning yozishicha, “Ma’lumki maishiy xizmatlar, pullik xizmatlarning tarixiy shakllangan muayyan majmui va turlari hisoblanib, korxonalar tomonidan aholining yakka tartibdagi buyurtmalarini bajarishga hamda ularning shaxsiy daromadlari asosida to‘lov qilinadigan xizmatlardir”[7].

Tadqiqot metodologiyasi. Analiz va sintez, induksiya va deduksiya, ko‘p omilli va dinamik taqqoslash, davriylashtirish, iqtisodiy-matematik modellashtirish usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Maishiy xizmatlar insonlar foydalanayotgan mahsulot va buyumlarning iste’mol xususiyatlarini saqlash hamda tiklash vazifasini bajarganligi sababli, ushbu sohaning rivojlanishi aholiga o‘zlari sotib olgan tovarlardan yanada unumliroq foydalanishga sharoit yaratadi. Bugungi kunda insonlar foydalanayotgan uzoq muddatli buyumlar hajmi ko‘payib borayotganligi sababli, maishiy xizmat ko‘rsatish sohasi tomonidan murakkab tuzilishga ega jihozlarni ta’mirlash asosida aholi oilaviy byudjetni tejash imkoniyati yaratilmoqda.

Maishiy xizmatlar sohasini rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirishni amal qilish va o‘zgarish qonuniyatlarini tahlil etish, bu jarayonda davlat va real sektor o‘rnini aniqlash ma’lum bir mezonlar asosida amalga oshirilishi lozim deb hisoblaymiz. Buni ilmiy asoslash uchun kambag‘allikni qisqartirishning amalga oshirish qonun-qoidalari, talab, tamoyil va mezonlarini o‘rganish talab etiladi. Tadqiqotlarmiz natijasida institutsional o‘zgarishlarni tasniflashda turli xil mezonlar bo‘yicha yondashdik va ularni amalga oshirish tavsifiga aniqlik kiritildi (1-jadval).

1-jadval

Maishiy xizmatlar sohasini rivojlantirish asosida kambag‘allikni qisqartirish klassifikatsiyasi[1]

№	Yondashish mezoni	O‘zgarishlar klassifikatsiyasi	Amalga oshirish xarakteri
1	O‘zgarishlar xarakteriga ko‘ra	Sifat o‘zgarishlari	Intensiv amalga oshirish xarakteri
		Miqdor o‘zgarishlari	Ekstensiv amalga oshirilishi
2	Vujudga kelish xarakteriga ko‘ra	Evolyutsion o‘zgarishlar	Mamlakatda mavjud an’analar asosida
		Inqilobiy o‘zgarishlar	Inqiroz, turli ta’sirlar asosida
3	O‘zgarishlar miqyosiga ko‘ra	Tarmoqdagi o‘zgarishlar	Real sektorni innovatsion xarakterini olishi
		Global o‘zgarishlar	Jahon bozoriga kirishi oqibatida unga moslashish
4	O‘zgarishlar sabablariga ko‘ra	Ekzogen sabablar	Tashqi omillar hisobiga
		Endogen sabablar	Ichki omillar hisobiga
5	Hududiy mansubligiga ko‘ra	G‘arbiy	Asosiy institutlar – bozor iqtisodiyoti institutlari
		Sharqiy	Asosiy institutlar – redistributiv iqtisodiyot institutlari
6	O‘zgarishlarlar manbalariga ko‘ra	To‘siqlarni ongli yengib o‘tish	Real sektorni yangi sharoitlarga moslashtirish
		Davlatlar o‘rtasidagi institutsional almashinuv	Jahon qonunchiligiga moslashish
7	Amalda kiritish xarakteriga ko‘ra	Ixtiyoriy o‘zgarishlar	Real sektorni modernizatsiya, diversifikatsiya holatlariga moslashishi
		Majburiy o‘zgarishlar	Davlat qonunchilikni joriy etish oqibati amalga oshirilishi

1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki maishiy xizmatlar sohasini rivojlantirish asosida **kambag‘allikni qisqartirish** jarayoni ko‘p hollarda uzluksiz amalga oshiriladi. Ushbu jarayon ularning mavjud tuzilma doirasida, ya’ni asosiy qoidalar va me’yorlarni saqlagan holda kechadi. Bu davlatning tanlangan yo‘nalishidan kelib chiqib amalga oshiriladi. Aynan maishiy xizmatlar sohasini rivojlantirish orqali kambag‘allikni qisqartirishni amalga oshirishda davlat yuqorida ko‘rsatgan barcha o‘zgarish klassifikatsiyalarini qo‘llashi mumkin. Ammo, bu jarayonda iqtisodiyotdagi o‘zgarishni milliy mentalitetga xos unsurlar bilan to‘ldirish talab qilinadi. Maishiy

[1] Muallif tomonidan tuzilgan.

xizmatlar sohasini rivojlantirish orqali kambag‘allikni qisqartirishni amalga oshirish uchun davlat va xususiy sektor subyektlari o‘rtasida kelishuv talablari mavjud bo‘lishi lozim. Chunki, kambag‘allikni qisqartirish mavjud tartiblarga to‘g‘ri proporsional, jamiyatda sodir bo‘layotgan jarayonlarga teskari proporsionaldir.

2-jadval

Maishiy xizmatlar sohasini rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari[2]

№	Ijobiy	Salbiy
Iqtisodiy oqibatlari		
1	Xalqaro mehnat taqsimotidagi ishtirokning kengayishi	Import hajmining ortishi
2	Mahalliy resurslardan foydalanish hajmining ortishi	Aholini mavsumiy ish bilan ta’minlash
3	Chet el kapitalining jalb qilinishi	Inflyatsiya
4	Band bo‘lgan aholi sonining ortishi	Chet el kompaniyalari tomonidan iqtisodiy tizimning boshqarilishi
5	Soliq tushumlarining ortishi	Bandlikning an’anaviy sohalaridan chiqib ketilishi
6	Kambag‘allikning kamayishi va qashshoqlikning qisqarishi	Iqtisodiy nigilizm ta’sir doirasiga tushib qolishni ommalashishi
6	Jahon hamjamiyatida iqtisodiy imidjga ega bo‘lish	Iqtisodiy inqirozlarning paydo bo‘lishi va muvozanatsiz rivojlanish
Ijtimoiy-madaniy oqibatlari		
1	Ta’lim sifati va darajasining oshishini kambag‘allikni kamaytirishga ijobiy ta’siri	Ijtimoiy muammolarning o‘sishi
2	Ishlab chiqarish an’analarning saqlab qolinishi	An’analarning tijoratlashtirilishi
3	Mamlakat aholisining ijtimoiy tarafdan rivojlanishi	Aholi mentalitetida hech kimga bog‘liq bo‘lmagan o‘zgarishlar
Ekologik oqibatlari		
1	Resurslardan foydalanishga imkoniyatlarning shakllanishi	Atrof muhitning ifloslanishi, suv resurslaridan ayanchsiz foydalanish

O‘ylaymizki, maishiy xizmatlar sohasining rivojlantirishdan kelib chiqishi mumkin bo‘lgan ushbu salbiy ta’sir qiluvchi omillarni davlat o‘zining tartibga soluvchi funksiyasi orqali cheklashi yoki kamaytirishi mumkin. Shuningdek, maishiy xizmatlar sohasini rivojlantirishning ekologik oqibatlari har qanday mamlakatda kuzatilishi tabiiy ekanligini ta’kidlamoqchimiz. Biroq, shunga qaramasdan, yaxshi rejalashtirilgan va boshqarilgan maishiy obyektlarning atrof muhitga ta’sirini cheklash mumkin.

Xulosa va takliflar.

Xulosa o‘rnida maishiy xizmatlar sohasi iqtisodiy faoliyat sohasi sifatida kambag‘allikni qisqartirishda bir qator xarakterli xususiyatlarga ega sohaligini biz quyidagilar bilan asoslamoqchimiz:

[2] Muallif ishlanmasi .

1. Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida maishiy xizmatlar sohasi jahon iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biriga aylangan;
2. Dunyoning ko‘plab rivojlangan mamlakatlarida maishiy xizmatlar sohasi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal qiluvchi eng samarali sohalaridan biri sifatida qaralmoqda;
3. Maishiy xizmatlar sohasi shaxs va jamiyatning manfaatlariga xizmat qiluvchi hamda mikro va makro darajada mamlakatning daromad manbai hisoblanadi;
4. Rivojlangan mamlakatlarda aholining aksariyati ta’tilni uydan tashqarida o‘tkazadi, bu esa kuchli maishiy xizmatlar sohasi sanoatining rivojlanishiga zamin yaratmoqda;
5. Iqtisodiy rivojlanmagan va kambag‘allik darajasi yuqori bir qator mamlakatlar uchun maishiy xizmatlar sohasi iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun foydalaniladigan samarali valyuta manbaiga aylandi;
6. Ko‘pgina mamlakatlarda maishiy xizmatlar sohasida band bo‘lganlar soni allaqachon iqtisodiyotning boshqa sohalarida band bo‘lganlar soniga mutanosibdir;
7. Ko‘pgina davlatlarda maishiy xizmatlar sohasiga qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratish, turistik infratuzilma obyektlarining qurilishini jadallashtirish, barcha turdagi xizmatlarni rag‘batlantirish va kambag‘allikni kamaytirishning asosiy omillaridan biriga aylanib ulgurmoqda;
8. Maishiy xizmatlar sohasi xalq hunarmandchiligi, mintaqalar va mamlakatlarning milliy madaniyatini saqlashga xizmat qiladi;
9. Maishiy xizmatlar sohasi bandligini ta’minlash natijasida kambag‘allikni kamaytirishga olib keladi.
10.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Pardayev M.Q. Xizmatlarning ijtimoiy-iqtisodiy tabiati va uni rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari. // Servis va turizm: Boshqarish va rivojlantirish muammolari. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari.- Samarqand, 2017. – B. 11-14.
2. Muxammedov M.M.Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish –ustuvor masala. // Servis. - Samarqand, 2016, № 1. – B. 47-56.
3. Urunbayeva Yu.P. Xizmat ko‘rsatish sohasi va aholi turmush darajasi: o‘zaro bog‘liqligi va rivojlanish istiqbllari. Monografiya. – T.: “Fan” nashriyoti, 2013. – B. 144.
4. Mirzayev Q.J. va boshqalar Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti. O‘quv qo‘llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2014. – B. 384.
5. Мирзаев Қ.Ж. ва бошқалар Хизматлар соҳаси иқтисодиёти. Ўқув қўлланма. – Т.: “ИҚТИСОД-МОЛИЯ”, 2014. – Б. 384.
6. Биндиченко Е.В. Сфера услуг: теория и практика / Изд-е Башкире, ун-та. – Уфа, 2000. – С. 83.
7. Юхименко В.В. Социально-экономические вопросы прогнозирования бытового обслуживания населения. Автореферат дис. канд. экон. наук. – М., 1974.
8. Гаранин А.И. Социально-экономические проблемы бытового обслуживания населения. Автореферат дис. д-ра экон. наук. - М., 1980.